

O`QITUVCHINING NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Ochilova Hilola Sheraliyevna

*Nizomiy nomidagi O`zbekiston milliy pedagogika universiteti
 “Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim” fakulteti Maktabgacha
 ta`lim nazariyasi va metodikasi kafedrasi o`qituvchisi*

Nutq madaniyati — ijtimoiy madaniyatni, kishilik jamiyati madaniyatini aks etgiruvchi bir ko`zgudir.

O`qituvchi o`zlashtirishi lozim bo`lgan pedagogik texnikaning muhim tarkibiy qismlaridan biri uning nutq texnikasidir (Nutq tempi, diksiyasi(so`zlarni aniq, ravshan talaffuz etish, sozlash usuli), tovush ohangini baland, o`rta, past qila olishi va hokazo).

Dars jarayonida o`quv materiallarini idrok qilishda o`qituvchining nutqi muhim rol o`ynaydi. Olimlarning fikricha, bolalar tomonidan 1 / 2 foiz o`quv materialini tafakkur orqali idrok qilish va o`zlashtirish o`qituvchining nutqiga va uning so`zlarni to`g`ri talaffuz qilishiga bogliq. Bolalar o`qituvchining nutqini nihoyatda kuzatuvchanlik va qiziqish bilan tinglaydilar. Past ohangda gapiradigan o`qituvchining darsi bolalar uchun zerikarli bo`ladi, nihoyatda baland gapirish, oddiy suhbat chog`ida ovozni baland qilib so`zlashish bolalarni darsdan bezdiradi va charchatadi. Bolalarning bunday o`qituvchi ta`limidan ko`ngillari soviydi. Shuning uchun o`qituvchi savodli gapirishi, o`z nutqini chiroyli va tushunarli, ta`sirchan qilib bayon qilishi, o`z fikr va his-tuyg`ularini so`zda aniq ifodalash malakalariga ega bo`lishi lozim. Chiroyli, savodli, ta`sirchan gapiruvchi o`qituvchilarning fikrlari bolalar ongiga tez yetib boradi, o`quv materiallarini o`zlashtirib olishiga katta imkoniyat yaratadi, bolalar bunday o`qituvchilarning darslarini toqatsizlik bilan kutadilar. O`qituvchilar o`z nutqlari ustida tinimsiz ishlashlari, so`zlarning chiroyli, ma`noli, ta`sirchan bo`lishi ustida mashq qilishlari, ovoz diapazonlari kuchi, nutq tembrining harakatchanligi, diksiyasini doimo mashq qilib borishlari lozim. nutq texnikasini (nafas olish, ovozni boshqarish, nutq tempi) bilshpi va o`z o`rnida qo`llay olishi.

Kvintilianning fikricha, notiq tashqi ovoz natijalari bilan emas, balki ilmiy asosga ega bo`lgan, mazmunan boy, mukammal va “tiniq” nutq orqali ulkan yutuqlarga erishishi mumkin. U “Tarbiya haqida” asarida o`z nazariyalariga asoslanib, notiqlik san`atini o`rganish metodikasiniyaratdi.

Nutq odobi deb yuritilgan qoida va ko`rsatmalarda sodda va o`rinli gapirish, qisqa va mazmundor so`zlash, ezmalik laqmalikni qoralash, keksalar, ustozlar oldida nutq odobini saqlash, to`g`ri, rost va dadil gapirish, yolg`onchilik, tilyog`lamalikni qoralash va boshqa qonuniyatlar to`g`risida fikr yuritiladi.

Buyuk alloma Abduraxmon Jomiy o`z adabiy merosida so`z va nutqning qudrati naqadar ulug`ligini, tildek insonga chiroyli libos kiydirguvchi vosita hech qaerda

bo'lmashligini bayon etgan:

Tildagi ketma-ket xatoga hayhot,
Chiroyli kiyimlar berolmas najot.
So'zni kiyimingdek bekamu ko'st qil,
Yoki kiyimingni so'zingga rost qil.

Kaykovus mudarrislarni axloqli ekanligining birinchi belgisi, uning suxandonligida deb bilady va "Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir" deydi. Suxandonni shogirdlarga **notiqlikda rost so'zlash kerakligini ta'kidlaydi**.

IV asrning buyuk mashoyixi Abu Nosir Tusiy o'zining «O'qituvchilarni tarbiyalash to'g'risida» nomli asarida quyidagilarni yozadi: «Murabbiy munozaralarini to'g'ri olib borish, rad etib bo'lmaydigan darajada isbot qilishi, o'z fikrlarini to'g'riligiga ishonishi, nutqi mutlaqo sof va ravon bo'lishi lozim. Murabbiy nutqi hech qachon zaharxandali, qo'pol va qattiq bo'lishi mumkin emas. Dars paytida o'zini tuta olmasligi darsni buzadi». Buyuk mutafakkir Abdurahmon Jomiyning «Iskandar xirodnomasi» asarida muallimlar haqida quyidagi fikrlar bildirilgan: "muallim aqlli, adolatli, o'zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Uzini nomunosib tutgan murabbiy hech vaqt bolalarga bilim bera olmaydi". Shoir muallimning hayotdagi o'rnini quyidagi baytida bayon qiladi:

Ustod, muallimsiz qolganda zamon,
Nodonlikdan qora bo'lurdi jahon.

pedagogik texnika (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda hrdakatlari, mimika, pantomimika, takt) qoidalarini chuqur o'zlashtirib borishi shart.

10. O'qituvchi nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi kerak: turli sheva so'zlardan xoli bo'lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi; o'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi; hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli foydalana olishi lozim.

Jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqsa o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so'kishda qo'llaniladigan so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) kabi norasmiy so'zlardan xoli bo'lishi,

pedagogik texnika (mantiq, nutq ta'limining ifodali vositalari) va pedagogik taktga ega bo'lishi;

O'qituvchi kasbiy faoliyati davomida nutqidagi so'z qudratini takomillashtirib boradi. U o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish orqali so'z boyligini go'zal, ravon, ifodali, ta'sirchan bo'lishiga intiladi.

Nutq (yorqin va jarangdor, obrazli va intonatsiyali, chuqur hissiyotga berilish bilan, oddiy va betaraf, bosiq va vazmin gapirish; yoki ifodaliligi kam,

ta'sirchanlikning yo'qligi, betaraf, yo'riqnomaviy- idoraviy).

o'zaro hamkorlikning nutqiy va noverbal vositalarini (mimika, pantomimika, ma'noli qarash) qo'llash orqali munosabatga faol kirishish;

Mimika (ifodali, tetik va dadil, yorqin ko'rinishga ega bo'lish, tashqi ko'rinishning pedagogik maqsadga muvofiqligi, his tuyg'ularga boy, bosiq va vazmin ko'rinishni yuzda aks etishi).

Pantomimika (ifodali va ta'sirchan harakat, yoqimli inson, sevimli ustoz sifatida o'zligini namoyish eta olish, his - tuyg'ularga boy, bosiq va vazmin bo'lish, betaraf, beo'xshov harakatlardan saqlanish).

O'qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativ layoqatni, pedagogik texnika sirlarini (nutq, yuz, qo'l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) chuqur o'zlashtirib olishga erishishi lozim.

Ayniqsa, o'qituvchi o'zining individual nutq madaniyatiga ega bo'lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni aks ettirishi kerak:

- a) nutqning to'g'riligi;
- b) nutqning aniqligi;
- v) nutqning ifodaviyligi;

g) nutqning sofliigi (uning turli sheva so'zlaridan xoli bo'lib, faqat abadiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos bo'lmagan so'zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etiladigan, o'zga millatlarga xos so'zlarni noo'rin qo'llanilishi); vulgarizm (haqorat qilishda qo'llaniladigan qo'pol so'zlar) hamda konselyarizm (o'rni bo'lmagan vaziyatlarda rasmiy so'zlardan foydalanish) so'zlaridan xoli bo'lishi;

- d) nutqning ravonligi;

j) nutqning boyligi (hikmatli so'zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko'chirma gaplardan o'rinli va samarali foydalana olish). O'qituvchining pedagogik faoliyatidagi og'zaki nutqi monologik va dialogik shaklda bo'ladi.

O'qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo'lishi kerak. O'qituvchi pedagogik-psixologik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o'zida bir qator sifatlarni tarkib topishiga erishishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, o'qituvchining kasbiy faoliyatida nutq madaniyati muhim va hal qiluvchi o'rin tutadi. O'qituvchi o'zbek tilining boy imkoniyatlaridan unumli foydalanib, nutqini go'zal, ravon, ifodali va ta'sirchan qilishga intilishi zarur. Nutq nafaqat axborot yetkazish vositasi, balki tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish, o'quvchi bilan samimiy munosabat o'rnatish hamda pedagogik jarayon samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Shuningdek, nutqiy va noverbal vositalar — mimika, pantomimika, jest va ma'noli qarashlar o'qituvchining pedagogik mahoratini yanada boyitadi. Ularning uyg'un va o'rinli qo'llanilishi o'qituvchining shaxsiy jozibasini, ishonchliligini hamda

o'quvchilarga ta'sirchanligini kuchaytiradi. O'qituvchi yuz ifodasi va harakatlarida bosiqlik, vazminlik va samimiylilikni saqlagan holda, betaraf va noo'rin holatlardan chetda bo'lishi lozim.

Demak, o'qituvchi individual nutq madaniyatiga ega bo'lishi, nutqining to'g'riligi, aniqligi, ifodaviyligi, sofligi, ravonligi va boyligini doimiy ravishda takomillashtirib borishi zarur. Monologik va dialogik nutq shakllaridan maqsadga muvofiq foydalanish orqali u pedagogik-psixologik muloqotning faol ishtirokchisiga aylanadi. Natijada o'qituvchining nutqi ta'lim-tarbiya jarayonida yetakchi qudratga ega bo'lib, barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sheraliyevna, O. H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70-75.
2. Sheraliyevna, O. H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING GRAMMATIK TO'G'RILIGINI SHAKLLANTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 179-185.
3. Sheraliyevna, O. X. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SUHBAT QURISH O 'RGALI NUTQINI O 'STIRISH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.
4. Ochilova, X. S. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI. Inter education & global study, (7), 144-148.
5. Sheraliyevna, O. H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO 'LLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70-75.
6. Sheraliyevna, O. H. (2023). TARBIYA-IJTIMOYIY HODISA. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(1), 130-132.
7. Chorlieva, D. A. BO'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY MAHORATLARINI OSHIRISH YO'LLARI. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 385.
8. Ochilova, X. S. (2025). MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI. Inter education & global study, (1), 319-324.
9. Choriyeva, D. (2022). TARBIYACHINING PEDAGOGIK MAHORATINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNIKANING ROLI. Zamonaviy dunyoda pedagogika va psixologiya: Nazariy va amaliy izlanishlar, 1(24), 101-103.

10. Sheraliyevna, O. H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINING GRAMMATIK TO'G'RILIGINI SHAKLLANTIRISH. Лучшие интеллектуальные исследования, 10(1), 179-185.
11. Sheraliyevna, O. X. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI SUHBAT QURISH O'RGALI NUTQINI O'QITIRISH USULLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(4), 82-85.
12. Ochilova, X. S. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA KITOBXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI. Inter education & global study, (7), 144-148.
13. Sheraliyevna, O. H. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 8(4), 70-75.
14. Sheraliyevna, O. H. (2023). TARBIYA-IJTIMOIIY HODISA. Лучшие интеллектуальные исследования, 11(1), 130-132.